

Labaratoriya mashg'uloti ishlanmasi

G. Tojiboyeva

MAVZU: SEZGI - 2 soat

ISHNING MAQSADI: Inson sezgilarini tasirlanish darajasi va hususiyatlarini aniqlash, Xar xil ogirlikdagi kadok toshlar yordamida muskul sezgisining farklash chegarasi, Studentlarga insonning bilish faoliyatida sezgining rolini ko'rsatib berish, yesteziometr (teri sezgirligini ulchaydigan asbob) yordamida teri sezgisining chegarasini aniqlash, ko'rish sezgisida ranglar kontrastining xosil bulishini tekshirish.

NAZARIY MA'LUMOTLAR:

Sezgi aks yettirish jarayonlaridan biridir. Tevarak atrofdagi narsa va xodisalarning Xar xil azolarga bevosita tasir yetib turishi natijasida ularning turli belgi va xossalarning miyada aks yettirilish jarayoniga sezgi deb ataladi. Sezgilar obektiv olamning subektiv obrazidir. Inson bilimlarining manbaidir. Sezgining fiziologik asosi analizatorlardir. Analizatorlar tashqi va ichki muxitdan keladigan taassurotlarni kabul kilib olib fiziologik protsess bulgan ko'zgalishni psixik protsessga yani sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlar sistemasidir. Analizatorlar uch qismdan iborat.

1. Tasurotni qabul qilib oluvchi - Retseptorlar.
2. Retseptorlarda xosil bo'lgan ko'zgalishni tegishli nerv markazlariga yeltadigan o'tkazuvchi nerv yuli.
3. Ko'zgalishni psixik protsessga aylantiruvchi orqa miya yoki bosh miyadagi tegishli nerv markazlari.

Analizatorlarning biror kismi zararlanisa xam tegishli sezgi xosil bulmaydi. Barcha sezgi azolarimiz analizatorlarning retseptor kismlarini tashqil kiladi. Analizator xaqidagi talimotni I.P.Pavlov yaratgan.

Sezgilar uchta yirik turkumlarga ajratilib organiladi.

1. *Eksteroretseptiv(tashqi)* - segilar organizmning yuza qismida joylashgan.
2. *Interoretseptiv(ichki)* - sezgilar ichki organlarda joylashgan.
3. *Proprioretseptiv (kinestezik yoki xarakat, muvozanat) sezgilar* - sezgilar muskullarda, paylar va bo'ginlarda joylashgan.

Sezgilar bizga tashqi muxitdagi narsa va xodisalar xaqida dastlabki axborotlarni yotkazib turuvchi kanallar bulib xizmat qiladi. .

Barcha azolardagi sezgirlik muayyan chegarasiga yega bo'ladi. Sezgining quyidagi chegaralari mavjud: Absolyut - mutlaq chegarasi: bilinar-bilinmas muayyan sezgi xosil qiluvchi minimal darajada kuchga yega bo'lgan qo'zg'ovchi miqdordir. Shu miqdorga yotmagan qo'zgovchilar sezgi xosil qilmaydi. Sezgilarning mutlaq chegarasining miqdori sezgi organlarining mutlaq sezgilarini sifatlaydi. Sezgining mutlaq chegarasi qanchalik past bo'lsa, mutlaq sezgirlik shunchalik yuqori bo'ladi. Sezgining mutlaq chegarasini yeshitish sezgisi misolida tushuntiradigan bulsak, mutlak yeshitish tovushlardagi yeng nozik uzgarishlarni sezish, tassavur qilish va esda koldira Bilishdan iborat nodir istedoddir. Mutlak yeshitish kishilardagi musika kobiliyatining asosini tashqil kilib ayrim ijrochilarda darajada rivojlangan buladi. Sezgining farqlanish chegarasi: taassurot kuchining sezgilarda bilinar-bilinmas uzgarish xosil qiluvchi minimal darajadagi o'zgarishidan iboratdir. Sezgilarning yuqori chegarasi esa qo'zgovchi kuchining maksimal darajada ortishi natijasida sezgilarning kuchining tegishli analizatorlarda ogrik xosil qilish tomoniga karab uzgarishidir. Agar ko'zgovchi kuchi sezgining yukori chegarasidan orsa, sezgi organlari zararlanishi yoki butunlay ishdan chikishi mumkin.

Muskul sezgisining farqlash chegarasi

Ishning maqsadi: Xar xil ogirlikdagi kadok toshlar yordamida muskul sezgisining farqlash chegarasi

Ish uchun zarur jixozlar: 1grammdan 500 grammgacha bo'lgan xar xil qadok tosh va metal plasstinkalar.

Ishning borishi: Tekshiriluvchi ko'zi yumuq xolda o'ng va chap qo'lga bittadan qadoq toshini olib ularni vaznini chamalaydi. Xar ikkala qo'lidagi toshni u qo'lidan bu qo'lga almashtirib, chamalab, salmoqlab ko'rishni xam mumkin. Dastlab xar ikkala qo'lidagi toshni vazni baravar (masalan, 600 grammdan) bo'lishi tekshiriluvchining bir qo'lidagi qadoq tosh taqqoslash uchun o'zgaras meyor bo'lib, xizmat qilsa, ikkinchi qo'lidagi qadoq tosh sekin-asta (1, 2, 3, va xakozo grammga) ortirib boriladi va toshlarning qay biri ogirlashganini tekshiriluvchidan dam ba dam so'rab turiladi. Ma'lum vaqtga qadar tekshiriluvchi ikkala qo'lidagi qadoq toshlarni vaznidagi o'zgarishni sezmaydi. Vaqt o'tishi bilan bir qo'lidagi tosh ikkinchi qo'lidagi toshga nisbatan ogirlashganini seza boshlaydi. Tekshiriluvchi tomonidan payqab olingan qo'shimcha ogirlik miqdori undagi muskul sezgisini farqlash, chegara ko'rsatkichi bo'lib xisoblanadi. Xar bir tekshiriluvchi bergan ko'rsatkichlar o'arorda qayd yetilib borilishi kerak.

Ishning natijalarini taxlil qilish

O'tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagicha qarorlashtirilib, taxlil qilinishi mumkin: 3-qaror

Tajriba mavzusi: **Muskul sezgilarini farqlash chegarasini tekshirish**

Tekshiruvchi _____

Tekshiriluvchi _____

Sana _____

Tartib №	Tavsiya kilingan ko'zgovchi (gram xisobida)		Tekshiriluvchidan olingan ko'rsatkich
	doimiy	uzgaruvchi	
1	600	601	Teng
2	600	602	Teng
3	600	603	Teng
4	600	604	Teng
5	600	610	Teng
6	600	612	Teng
7	600	615	Teng
8	600	617	O'ng qolimdagi ogir
9	600	618	O'ng qolimdagi ogir
10	600	619	O'ng qolimdagi ogir

Mazkur tajribani ko'rsatishicha tekshiriluvchining muskul sezgisidagi farq qilish chegarasi 19 grammga teng. Bu miqdor dastlabki tavsiya qilingan 600 gramlik vaznining 1,2 qismini tashqil yetadi. Bu ko'rsatkich xar xil odamda turlicha chiqishi tabiiydir. Chunki odamlarning yoshi va tajribasi xatto shugullanadigan ish faoliyati bilan bog'liq xolda sezgirlik chegarasi o'zgarib boradi.

Odanning teri va badan orqali sezishini tekshirish

Ishning maqsadi: Studentlarga insonning bilish faoliyatida sezgining rolini ko'rsatib berish

Ish uchun zarur jixozlar: Unchalik katta bo'lmagan oddiy buyum (predmet)-kalit, rezina,shu kabilar.

Ishning borishi: Ishning ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda tekshiriluvchi orqa o'girib qaramay turadi va barmoqlarining ortiga keyin kaftiga predmetlar qo'yiladi. Xar safar tekshiriluvchiga qarab: «Ushbu buyum xaqida nima deysiz?» degan savol berib boriladi. javoblar esa butun grupp tomonidan yozib boriladi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida esa Tadqiqotchi tekshiriluvchiga predmetni ushlab kerishni taklif kiladi va birinchi bosqichdagi berilgan savolga javob berishni suraydi. Bu safar xam javoblarni butun grupp yozib boradi. Xar bir tajribani psixologiya ukituvchisining uzi utkazib ko'rsatadi so'ngra studentlar uzlari mustakil utkazadilar.

Ishning natijalarini taxlil qilish

Birinchida bosqichdagi tajriba yuzasidan studentlar shunday xulosaga olib kelinadi: Sinaluvchi kishida bir-biridan ajratilgan aloxida-aloxida sezgilar paydo buladi. Bu sezgilar predmetning nima ekanligini bilishga imkon bermaydi. Uning fakat ayrim xususiyatlarin aks yettiradi. «kandaydir Yengil bir narsa», «Yumshok bir narsa», «Sovuk narsa» kabi javoblar beriladi. Ikkinchi bosqichda utkazilgan tajribada sinaluvchilar predmetning nima ekanini aytib beradilar. Chunki predmet kompleks ko'zgatuvchi sifatda badan orkali sezish yordamida idrok yetiladi. Bunda fakat teri sezgilarigina emas balki kinestezik analizatorlar xam ishga tushadi va bilish apparatlari xarakatga keltirilgan bo'ladi.

Teri satxi sezgilarining mutlaq chegarasi

Ishning maqsadi: yesteziometr (teri sezgiriligini ulchaydigan asbob) yordamida teri sezgisining chegarasini aniqlash.

Ish uchun zarur asbob va uskunalar. esteziometr - Bu asbob tashqi ko'rinish jixatdan shtangensirkul (biror detalni kalinligi,yugonligi yoki ichki diametrini ulchaydigan asbob)ni yeslatadi.Yesteziometr - millimetrlarga ajratib chikilgan metall sterjen (tayokcha), sterjenning nol bulmasi tomoniga urnatilgan ko'zgalmas ayokcha: millm. Butun kismi buylab xar ikkala tomonga surish mumkin bulgan – xarakatlanuvchi ayoklardan tuzilgan asbobdir. Ish jarayonida yesteziometrning ko'zgaluvchi ayokchasini surish orkali ikkala ayokcha oraligidan zarur bulgan kenglikni tanlash mumkin.

Ishning borishi:.

Tadqiqot ikki seriyada o'tkaziladi.

Birinchi seriya. Tajriba jarayonida tekshiriluvchining ko'zlari yumuk yoki bog'lab kuyilgan buladi. Shuningdek barmoklarning terisi taranglashmagan xolatda bulishi uchun uning kuli tirsagiga tayanib turishi kerak. Tekshiruvchi yesteziometr oyoklari oraligini muayyan darajada ochgan xolda uni tekshiriluvchi panjalarining sirtiga Yengil tekkizib: «Nechta narsani tegayotganini sezayapsiz» - deb so'rab boradi. «Ikkita narsani tegayotganini sezayapman»- degan javobni bergunga qadar yesteziometr ayokchalarini oraligini kamdan - kam qiskartirib boradi.

Tajribani ikkinchi seriyasida aksincha: asbob oyoqchalarining oraligini muayyan kenglikda (mas :40mm) ochilgani xolda tekshiriluvchining kul panjalari ortiga tekkizib birinchi seriya tekshirishida berilgan savolni takrorlaydi va nixoyat tekshiriluvchining: «Bitta narsani tegayotganini sezayapman» degan javobiga qadar oyokchalar oraligini kamdan-kam kiskartirilib boradi.

Ishning natijalarini taxlil qilish:

Tajriba natijalari jadval asosida qayd etiladi:

tavsiya kilingan qo'zgovchi	Tekshiriluvchidan olingan ko'rsatkich		Izox. Tadqiqotchini ng dastlabki olingan natijasi
	↑	↓	
0		1	
2		1	
5		1	
7		1	
9		1	
11		1	
12		1	
13		1	
14		1	
15		1	
16		1	
17		2	
18	1		
19	2		
20	2		
21	2		

22	2		
23	2		
24	2		
25	2		
26	2		
30	2		

Teri satxidagi sezgirlik chegarasining katta kichiklik o'lchamini quyidagi formula orkali aniqlash mumkin.

$$E = \frac{E_1 + E_2}{2} = \frac{17 + 1}{2} = 18.0$$

Bunda E_1 va E_2 birinchi va ikkinchi seriya tajribadagi ko'zgovchi ta'sir orkali aniqlangan sezgi chegarasining daraja ko'rsatkichlaridir, tajribalar sungida barcha tekshiriluvchilardan olingan juziy natijalar jamlanib chikkan natijani barcha tekshiriluvchilar soniga bulish yuli Bilan sezgini mutlak chegarasining urtacha arifmetik kiymati keltirilib chikariladi. Juziy natijalarni esa gruppaa buyicha chikarilgan urtacha kiymat Bilan takkoslab ko'riladi. Agar ularda fark bulmasa u xolda jadvaldagi «Izox» joyi bo'sh qoldiriladi. Agar o'rtacha qiymatdan farqlansa, u xolda bunday farqlanishni sabablarini qisqa kilib jadvalning «izox» bulmasiga kayd yetib kuyiladi. Sezgirlik susayishining sabablaridan biri charchasa, yani shaxsning umumiy xolati, shuningdek Ayrim organlarning xolati bilan bog'lik buladi. Studentlar juziy natija bilan o'rtacha qiymatni solishtirib ko'rish orqali mustaqil xulosa chikaradilar

Ko'rish sezgisida izchil ranglar kontrastining xosil bo'lish qonuniyati.

Ishning maqsadi: ko'rish sezgisida ranglar kontrastining xosil bulishini tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar: kattaligi 48x64sm bulga nok kogoz varaklari, ularga 15x15sm kattalikdagi yashil,kizil, kuk,sarik rangli kvadratlar kirkib yopishtirilgan ok rangli yekran.

Ishning bajarish tartibi; tajribani tabiy kunduzgi yoruglik sharoyitida yoki kunduzgi yoruglikka yakin bulgan nur taratadigan lampalar yorugligida o'tkaziladi.

Tajribada ishtirok yetayotgan studentlar xonada shunday o'tkaziladiki, ularning xar biriga rangli kvadrat to'ppa-to'g'ri ko'rinib turadigan bo'lsin

Kvadratlar ulardan 4mgacha uzoqlikda o'rnatiladi. Studentlarga 20-40 sekund mobaynida rangli kvadratlariga tikilish, keyin esa o'z nigoxini yekranga ko'chirish xamda unda rangli kvadrat paydo bo'lmaguncha nigoxni uzmay turish taklif qilinadi. Bunda turli kishilarda izchil ranglar kontrasti turlicha kechishini takidlab o'tish zarur. Tajribalar tamom bo'lganidan ularning natijalarini yozib olish, yozib olinayotgan kvadrat rangini belgilash xamda izchil kontrastda paydo bulayotgan ranglar tonini ko'rsatib yozish zarur. Bunda izchil kontrastlar xarakatdan keyingi xodisa natijasi yekaligini takidlab utish zarur. Ko'zgovchi ta'sirining to'xtashi retseptordagi ko'zgalish jarayonini xamda analizatorlarning miya po'stlogi qismidagi ko'zgalishlarni o'sha xaxoti to'xtatmaydi.

HISOBOT REJASI

- 1) Ishning mavzusi maqsad va vazifalari
- 2) Ishni amalga oshirish rejasi, tuzilish artibi
- 3) Bajarilgan ishga atroflicha (kengaytirillgan) tavsif tayyorlash
- 4) Olingan natijalar
- 5) O'tkazilgan nazorat mashqlarini o'ziga hos tomonlarini ajratish
- 6) Hulosa va mulohazalar

TAYaNCh SO'Z IBORALAR:

sezgi, adaptasiya, sensibilizasiya, interoreseptor, yeksterorezeptor, proprioseptor, muskul sezgisi, sezgi chegaralari, ranglar kontrasti

NAZORAT SAVOLLARI:

- 1) Sezgi haqida tushuncha
- 2) Sezgi tasnifi qanday?
- 3) Sezgi turlarini ayting.
- 4) Sezgini o'rganish usullari

ADABIYOTLAR

1. Ye.G.Goziev «Umumiy psixologiya» Toshkent universiteti 2002 yil
2. Ye.G.Goziev «Psixologiya metodologiyasi» Toshkent universiteti 2000 yil
3. Ye.G.Goziev «Xulq atvor va motivatsiya» Toshkent 2002 yil
4. Daminov A.V. va boshqaalar "Psixologiyadan seminar va laboratoriya ishlanmalari"
5. Xaxlova Z.N. "Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar"

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. P.Ivanov «Umumiy psixologiya» Toshkent 1986 yil
2. M.O.Gemezo «Psixologiya» Toshkent 1996 yil
3. V.Karimova «Psixologiya asoslari» Toshkent universiteti 2005 yil